

"YALDO KECHASI" ASARINING SYUJET ZANJIRI VA KULMINATSION
NUQTASI

Mansurova Bog'dagul Quchqorovna

Osiyo texnologiyalar universiteti

bogdagulmansurova19@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada "Yaldo kechasi" asarining syujet zanjiri va kulminatsion nuqtasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda voqealar rivojining bosqichlari, konfliktlarning kuchayib borishi hamda kulminatsiya nuqtasining badiiy ahamiyati yoritiladi. Syujet zanjiri orqali muallif g'oyasining izchil ochilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: syujet zanjiri, kulminatsiya, konflikt, voqealar rivoji, badiiy tahlil.

Аннотация: В статье анализируются сюжетная цепь и кульминационный момент видения "Ялдо кечаси". Рассматриваются этапы развития событий, нарастание конфликта и художественное значение кульминации. Обосновывается роль сюжетной структуры в раскрытии авторской идеи.

Ключевые слова: сюжетная цепь, кульминация, конфликт, развитие событий художественный анализ.

Abstract. This article examines the plot chain and climax of the work "Yaldo kechasi". It analyzes the intensification of conflict, and the artistic significance of the climax. The role of the plot structure in revealing the author's idea is substantiated.

Keywords: plot, chain, climax, conflict, plot, development, literary, analysis.

KIRISH

Badiiy asarda syujet zanjiri voqealarning izchil rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Ayniqsa, kulminatsiya nuqtasi syujetning eng yuqori cho'qqisi bo'lib, unda asosiy konflikt o'zining eng keskin holatiga yetadi. "Yaldo kechasi" asarida syujet zanjiri puxta qurilgan bo'lib, undagi kulminatsion nuqta muallif g'oyasini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi asardagi syujet zanjiri va kulminatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy tahlil qilishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Asar juda atta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Ko'plab adabiyotshunoslar, jumladan, Ibrohim G'ofurov, Xondamir Qodiriylar asar haqida o'z iliq fikrlarini bildirishdi. Asar hali matbuot yuzini ko'rmasidan turib, asar haqida maqolala paydo bo'ldi.

Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

Struktural tahlil - syujet bosqichlarini aniqlash, ya'ni voqealning ketma- ketligini aniqlash.

Tahliliy metod - voqealar rivojini o'rganish.

Psuxologik tahlil - kulminatsiya jarayonidagi obrazlar ruhiyatini ochish.

Qiyosiy metod - syujet elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni baholash.

Natijalar. Tahlil natijasida quyidagi jihatlar aniqlandi. Asarda syujet zanjiri quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

Ekspozitsiya - Otabekning Xudoyorxon xizmatiga maxfiy tarzda o'tishi. Tugun - "Najot" gazetasining yopilishi, Yodgorbek va uning xizmatidagi 2 kishining surgun qilinishi. Rivojlanish - Asardagi qarama-qarshiliklar ko'p o'rinlarda uchraydi. Masalan, Yodgorbek va Ostroumov to'ra o'rtasidagi konflikt. Yodgorbek va Rafiq maxzum Hamdam o'g'li o'rtasidagi qarama-qarshilik. Kulminatsiya - Yodgorbekning Sibir surgunidan qochishga urinishi, Ozodbekning Sho'ro hukumati xizmatiga kirib, ukasiga qarshi bo'lib qolishi. Odilbekning bosmachilarga qo'shilib ketishi. Yechim - Ozodbekning qamoqqa olinishi va otib tashlanishi. Odilbekning yurt bayrog'ini mahkam ushlagan cha shahid bo'lishi. Syujet zanjiri izchil va mantiqan bog'langan bo'lib, har bir bosqich keyingisini tayyorlaydi. Kulminatsion nuqta asar dramatik keskinlikning eng yuqori darajasini ifodalaydi. Bu nuqtada: Qahramon ichki ziddiyatga duch keladi va asosiy konflikt hal qilinish arafasiga keladi. Kulminatsiya voqealar rivojining tabiiy natijasi sifatida yuzaga keladi va sun'iylikdan holi.

Muhokama. "Yaldo kechasi" asarida syujet zanjiri va kulminatsiya o'zaro uzviy bog'langan. Muallif voqealarni bosqichma- bosqich rivojlantirib, o'quvchini kulminatsiyaga tayyorlaydi. Kulminatsiya nafaqat voqealarning eng keskin nuqtasi, balki qahramon ruhiy olamining ochilish cho'qqisi hamdir. Aynan shu nuqtada obrazning ichki kechinmalari eng chuqur ifodalanadi. Shuningdek, kulminatsiya kompozitsion jihatdan markaziy o'rin egallab, undan keyingi voqealar yechimga xizmat qiladi. Bu esa asarning yaxlitligini ta'minlaydi.

Asardagi "Vido maktublari" sarlavhali bobga e'tibor beradigan bo'lsak:

Bosh Siyosiy Boshqarma
Sharqiy bo'lim vakili
o'rtiq Sarkisyang'a o'rtoq
Vareykis hamda Moskovdan
kelgan mehmon o'rtoqqa
mahbus Ozodbek Yodgorbek
o'g'li Otabekifdan

Ariza Bugun men mahbuslarning eng gunohkori, eng haqsizi sifatida har qanday huquqdan mahrum va hatto o'ta og'ir ayblilar ham foydalanaturg'on hojatxona va yuvinishka ham chiqarilmasdan odinochkada hibs bo'lib turaman. Bung'a sabab, ehtimolkim, bergan ko'rsatmalarimg'a ishonilmag'anlig'i bo'lsa kerak. Holbuki, men har nima so'roqlar, jumladan, bosmachilar safig'a chiqib ketkan ukam Odilbek Otabekif hamda marhum Nusratxon to'ra hamda Olmoniyadan qaytmag'an talaba Ibrohim Afzal haqidag'i savollarg'a ham rost va ochiq javob berganman, aybimdan tonib sizlarni va o'zimni qiynab turg'anim yo'q. Buning evaziga sizlardan olg'an mukofotim odinochniy qiynog'i bo'ldi. Asarning mana shu joyi kulminatsion nuqta hisoblanadi va o'quvchini bevosita o'ylantirib qo'yadi. Ushbu jumalarni o'qigan har qanday o'quvchining qalbi junbushga kelishi tabiiy hol, voqealar rivojini kuzatar ekan vaziyat nima bilan tugashiga qiziqishi tobora ortib boraveradi.

Odilbek egarda qiyrixon o'lturg'an ko'yi, Abdullaning necha bor so'rag'anig'a qaramasdan, qo'lidag'i bayroqni bermasdan, uni baland hilpiratib, otini yeldirib borar edi.

Nogahon pistirmadan poylab turib, ketma-ket uzilgan to'fangcha o'qiuning naq yuragiga tegdi. U qattiq bir "Oh" dedi-yu, qo'lidag'i bayroqqa o'ralib, yuztuban quladi. Mana shu jumalarda ham asar kulminatsiyasini ko'rishimiz mumkin. "Endi nima bo'ladi" - deya qiziqish o'quvchini asarni diqqat bilan o'qishga da'vat etadi.

Xulosa. "Yaldo kechasi" asarida syujet zanjiri izchil va puxta qurilgan bo'lib, kulminatsiya uning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Kulminatsion nuqta orqali muallif asosiy g'oyani ta'sirchan shaklda ifodalaydi.

Syujet zanjiri va kulminatsiya uyg'unligi asarning badiiy mukammalligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Maqola orqali kitobxonga asar syujetini ochib berishga xizmat qiladigan ma'lumotlar bera oldik deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva G. Xayriddin Sulton ijodi o'rganilishi. Tezis. European science international conference. February 2023.
2. Normatov U. Mustaqillik davri o'zbek nasri. Toshkent: O'zbekiston - 2021. 45- 67-b.
3. Rajabov M. Zamonaviy o'zbek nasrida psixologik tahlil masalalari. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent: 2022. N4.
4. Mirzayev A. Zamonaviy o'zbek nasrida badiiy tafakkur. Toshkent: Universitet - 2023. 398-b.
5. Mansurova B. Xayriddin Sulton "Yaldo kechasi" romanining g'oyaviy xususiyatlari. Global economic review journal. February 2026. ISSN(E) 2980- 5287.
6. Sultonov Xayriddin. Yaldo kechasi. Toshkent" Xaybar 25 nashriyoti. 2025.440-456-b
7. Shavkat Shahri. Yaldo kechasi kuting va o'qing. Jadid. 48-son. 2025-y. 28-noyabr.
8. Shuhrat Rizayev. "Yaldo kechasi" milliy tarixiy tafakkurni uyg'otgan badiiy hodisa. A. Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
9. Xoliyor Safarov. Yurt qayg'usi haqidagi asar - Yaldo kechasi tajallisi. Filologiya fanlari falsafa doktori. Maqola.